© 2026 Arabian International Conference on Science,Technology and Innovation. All rights reserved.

SO‘ZLOVCHINING RUHIY-HISSIY HOLATIGA BOG‘LIQ NUTQNING LINGVOGENDEROLOGIK XUSUSIYATLARI(„IKKI ESHIK ORASI „ ROMANIDA)

Sharipova Maxliyoxon G’ayratovna
FarDU akademik litsey o’qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24044287

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘tkir Hoshimovning”Ikki eshik orasi” romanida ruhiy holat ifodalaydigan lingvogenderologik xususiyatlar haqida fikr keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Psixolingvistika,funktsionallashish , paralingvistika, verbal vositalar, noverbal vositalar, lingvogenderologik xususiyatlar

So‘nggi yillarda tilning inson bilan bog‘liq xususiyatlari o‘rganila boshlagach, erkaklar va ayollar nutqining farqli jihatlari ham tilshunoslarning e’tiborini o‘ziga jalb qila boshladi, bu yo‘nalishda tadqiqotlar vujudga keldi. Ushbu sohaga oid tadqiqotlar ko‘lami kengaya borgach, lingvistik genderologiya deb nomlanuvchi tilshunoslik sohasi paydo bo‘ldi. “Lingvistik genderologiya fani g‘arb davlatlarida paydo bo‘lgan va jadal rivojlangan, ammo mamlakatimizda endigina rivojlanayotgan zamonaviy tilshunoslikning bir yo‘nalishidir”[1].

O‘zbek tilshunosligida nutqning jins jihatidan o‘rganilishi Sh.Iskandarova va S.Mo‘minov tadqiqotlaridan boshlangan. Sh.Iskandarovaning o‘zbek nutq odatining muloqot shakllariga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasida ayollar nutqiga xos xususiyatlar tahlil qilingan, ayollar nutqining erkaklar nutqidan fonetik, leksik va grammatik jihatdan farq qilishi haqidagi qarashlar bayon qilingan[2]. S.Mo‘minovning tadqiqotida erkak va ayollar muloqot xulqiga oid farqli jihatlar yoritilgan, ularning leksik, frazeologik, uslubiy va noverbal o‘ziga xosligi tahlilga tortilgan[3]. Shuningdek, so‘nggi yillarda M.To‘xtasinov[4], G.Ergasheva[5], N.Nasrullayeva[6], F.Musayeva[7], M.Abduvaxabova[8], Sh.Gulyamova[9], G.Niyazova[10], D.Ismoilova[11]lar tomonidan amalga oshirilgan monografik tadqiqotlarda ham tilning gender farqlanishi masalalariga e’tibor qaratilgan.

---

[1] Yusupova G. Tilshunoslikda gender tadqiqining nazariy asoslari // O‘zbekistonda xorijiy tillar, 2023. – № 2 (49). – B.37.

[2] Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Самарқанд, 1993.

[3] Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг жинс жиҳатидан хосланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1999. – №5. – Б.64-66.

[4] Тўхтасинов М.И. Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков): Автореф. дисс. … канд. филол. наук. –Ташкент, 2011.

[5] Эргашева Г. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг қиёсий типологик тадқиқи: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2011. – 164 б.

[6] Насруллаева Н. Инглиз ва ўзбек тилларида оламнинг фразеологик манзарасида гендер концептларининг шаклланиши: Филол.фан. д-ри (DSc) ...дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 71 б.

[7] Мусаева Ф.Т. Ўзбек тилида жинс тушунчасининг ифодаланиши: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 42 б.

[8] Абдевахабова М. Инглиз, итальян ва ўзбек фольклор мантларида гендернинг тил воситаларида ифодаланиши: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 48 б.

[9] Гулямова Ш. Ўзбек тили эвфимизмларининг гендер хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Бухоро, 2020. – 162 б.

[10] Ниязова Г. Детектив романлар тилининг социопрагматик аспекти ва гендер хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Тошкент, 2022.

[11] Ismoilova D. Lingvogenderologiya. – Farg‘ona, 2024.

© 2026 Arabian International Conference on Science,Technology and Innovation. All rights reserved.

Ayollar va erkaklar nutqi o‘zaro farqlanar ekan, bu farqlar qanday lisoniy va nolisoniy vositalar yordamida aks etishi masalasi ayollar va erkaklarga xos ruhiy-hissiy holatlar bilan chambarchas bog‘liqligini e’tirof etish zarur. Chunki tinch holatda, ruhiy jihatdan emotsiyaga berilmagan paytda erkaklar va ayollar nutqida farqlar kamroq yuzaga chiqadi. Aynan ruhiy-hissiy holatlar tas’irida yuzaga kelgan nutqda bu ikki jins vakillari tomonidan qo‘llanuvchi lisoniy vositalarning farqli jihatlari bor bo‘yi bilan namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan olib qaralganda, so‘zlovchining ruhiy-hissiy holatiga bog‘liq nutqning lingvogenderologik xususiyatlarini o‘rganish muhim sanaladi. Ayni shu nuqtada psixolingvistikaning lingvistik genderologiya bilan tutash jihatlari ko‘zga tashlanadi. Chunki lingvistik genderologiya sotsiolingvistika, psixolingvistika, pragmatika, kommunikatsiya nazariyasi, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik kabi sohalar bilan bog‘liqdir: “…borliq voqealari, jamiyatda yuz berayotgan har qanday o‘zgarishlar tilda o‘z ifodasini topadi, ana shu tilda muloqot qiluvchi til egalarining ijtimoiy faoliyati, ruhiyati, muloqoti, konseptual olamining lisoniy ifodalanishi kabi hodisalar esa yuqorida qayd etilgan ayol va erkaklar ijtimoiy faoliyatini aks ettiruvchi va shu sohani o‘rganuvchi sotsiolingvistikada, inson ruhiyatining lisoniy ifodasini tadqiq qiluvchi psixolingvistikada, inson tafakkurida shakllangan fikr va g‘oyalar ifodasini ta’minlashga xizmat qiluvchi lisoniy vositalar kombinatsiyasiga asoslangan tadqiqotlar bilan shug‘ullanuvchi pragmatikada, nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro axborot ifodalash bilan bog‘liq jarayonlar tadqiqi bilan shug‘ullanuvchi kommunikatsiya nazariyasi kabi tilshunoslikning maxsus yo‘nalishlari tarkibida lingvistik genderologiya sohasi vujudga keldi”[12]. Shunday ekan, nutqning genderologik xoslanishi masalasi psixolingvistik nuqtayi nazardan o‘rganilishi maqsadga muvofiqligi oydinlashadi.

Erkaklar va ayollar nuqiga xos assotsiativ birliklar ham o‘zaro farqlanadi. N.Abduraxmonova va M.Jo‘raqulovalar ayollarda erkin assotsiatsiyalar bo‘yicha tajriba o‘tkazib, ayollarga xos verbal assotsiatsiyalar bo‘yicha quyidagi xulosaga keladilar: “Ayollar bergan javob reaksiyalarida assotsiatsiyalar uzundan uzoq shaklda namoyon bo‘lgan, ular verbal assotsiatsiyalarni ifodalashda aksariyat hollarda bir so‘zni ifodalash uchun kengaygan predikativli va nopredikativli qurilmalardan foydalangan. Ayollarda verbal assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishida ekstralingvistik omillarning roli yuqori. Ular aksariyat hollarda o‘z hayotiy tajribalaridan kelib chiqib fikr bildirganlar; ayollarda hosil bo‘lgan verbal assotsiatsiyalar ko‘chma ma’noli so‘zlar, uslubiy bo‘yoqdor so‘zlar ko‘p qo‘llanganligi bilan ajralib turadi[13].

Erkaklarda verbal assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishida ekstralingvistik omillarning roli deyarli sezilmaydi. Ular yozgan verbal assotsiatsiyalarning aksariyati stereotip (standart) assotsiatsiyalardir; erkaklarda hosil bo‘lgan verbal assotsiatsiyalar ko‘chma ma’noli so‘zlar, uslubiy bo‘yoqdor so‘zlar kam qo‘llanganligi bilan ham ajralib turadi[14].

Erkaklar va ayollar tabiatan turlicha yaratilganlar, ularning hissiyotlarni ifoda qilishlari ham turlicha. Ayollar nutqida ko‘proq nolish, hasrat qilish uy-ro‘zg‘or, oila kabi mavzular uchraydi. Ayollar o‘z xursandchiligini ba’zan yuqori darajadagi emotsiya va turli noverbal hodisalar (qichqirib yuborish, qarsak chalish kabi holatlar. Bunday holatlar asosan, qizlarda uchraydi) orqali namoyon etsa, erkaklar o‘z quvonchini bosiqlik bilan ifodalaydi Albatta, erkaklar nutqiga bosiqlik, vazminlik, ayollar nutqiga esa nolish, hasrat qilish kabi holatlar mos deya keskin fikr bildirish nisbiydir[15].

Oyim teskari qarab, kafti bilan yuzini to‘sgancha hiqillab yig‘lab yubordi. – Urush boshlanibdi! – dedi bobom siniq ohangda. Yurtimizga nemis bostirib kiribdi. Hiqillab yigiayotgan oyim to‘satdan

[12] Ismoilova D. Lingvogenderologiya. – Farg‘ona, 2024. – B.25.

[13] Abduraxmonova N., Jo‘raqulova M. Assotsiativ metod orqali o‘zbek tili tezaurusining semantik maydonlarini shakllantirish // Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та’lim, 2023. – № 6/7. – B.16-17.

[14] Abduraxmonova N., Jo‘raqulova M. Assotsiativ metod orqali o‘zbek tili tezaurusining semantik maydonlarini shakllantirish // Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та’lim, 2023. – № 6/7. – B.16-17.

[15] Abdullayeva D. Gender tushunchasi va uning o‘zbek tilidagi xususiyatlari//Sentral Asian journal of education and innovation. Volume 2, Issue 4, Part 2 April, 2023. – P.137.

© 2026 Arabian International Conference on Science,Technology and Innovation. All rights reserved.

ovozini baralla qo‘yib yubordi. – Voy sho‘re-em! Bu balo qayoqda turgan ekan. Sho‘rginam qursin! – Sannama-ye! – bobom o‘shqirib berdi. – O‘chir! (100-bet)

Asardan keltirilgan parchada erkak va ayol nutqi yordamida ularning ruhiy holati yaqqol namoyon bo‘ladi. Bir xil vaziyatga ikki jins vakilining ikki xil reaksiyasi lingvistik va paralingvistik vositalar yordamida ko‘rsatib berilgan. Erkaklarning vaziyatga bosiqlik bilan yondashishi, aniq, lo‘nda va neytral leksik birliklardan foydalanib so‘zlashi Urush boshlanibdi! – dedi bobom siniq ohangda. Yurtimizga nemis bostirib kiribdi deb vaziyat haqida xabar berishida aks etgan bo‘lsa, qisqa, lekin keskin ohang bilan gapirishi – Sannama-ye! – bobom o‘shqirib berdi. – O‘chir! gaplari orqali yuzaga chiqqan. O‘shqirish ham erkaklarga xos xususiyat sanaladi va erkak kishining ovozini balandlatib gapirishini bildiradi. Bunda erkak kishi tomonidan vaziyatning nazorat qilinishi, ayollarning hissiyotlarini bostirishga urinishi ham ko‘zga tashlanadi.

Ayollarning his-hayajonga beriluvchanligi, tez va tas’irchan reaksiya bildirishi ham yuqoridagi misolda aks etgan: Hiqillab yigiayotgan oyim to‘satdan ovozini baralla qo‘yib yubordi. – Voy sho‘re-em! Bu balo qayoqda turgan ekan. Sho‘rginam qursin!

Sovuq xabarni eshitgach, ovozini barilla qo‘yib yig‘lab yuborish, undov so‘zlardan (Voy sho‘re-em!) foydalanish, tovushlarni cho‘zib talaffuz qilish (sho‘re-em), uslubiy bo‘yoqqa ega leksik birliklardan foydalanish (Sho‘rginam qursin!) ayollarga xos nutqning emotsional jihatlarini namoyon qiladi. Shuningdek, paralingvistik vositalar (teskari qarab, kafti bilan yuzini to‘sgancha hiqillab yig‘lab yubordi) ham ayollarga xos emotsional holatni aks ettiradi. Shunga ko‘ra, erkaklarning qisqa, lo‘nda, aniq, neytral leksika bilan so‘zlashini, ayollarda tovushlarning cho‘zib talaffuz qilinishi, undov so‘zlar, bo‘yoqdor leksikadan foydalanish lingvogenderologik farqlar sifatida ko‘rsatilishi mumkin.

Ayol kishi tabiatan nafosat sohibalari bo‘lganligi sababli, suhbat jarayonida ham jozibador va bo‘yoqdor leksemalarni, shaxsiy munosabat ifodalovchi so‘zlarni, ijobiy bo‘yoqdor so‘zlarni ko‘proq qo‘llaydi. Suhbat predmeti biroz bo‘rttirilgan holda bo‘ladi. Emotsional holatlar: hayratlanish, sevinish, qo‘rqish, nafratlanish, xafa bo‘lish kabi ruhiy-fiziologik jarayonlarni ularda kuzatishimiz mumkin[16]. Ayollar nutqida fikrni bo‘rttirib ifodalash quyidagi misol yordamida tahlil qilinishi mumkin:

To‘y tashvishi chiqqanidan buyon Ko‘tarmaga – Shomurod tog‘amnikiga kuniga uch martadan qatnayotgan oyim ahvolimni ko‘rib qo‘rqib ketdi. – Voy, mengina o‘lay, bu tashvish ham bor ekanmi,– deb boshimda parvona bo‘lib qoldi (89-bet).

Vaziyatga baho berishda ayollarning sodir bo‘layotgan voqea-hodisani vahima bilan bo‘rttirib ifodalashi so‘zlovchining voy undov so‘zini qo‘llashi, salbiy bo‘yoqdor leksika (mengina o‘lay)dan foydalanishi, shuningdek, ritorik so‘roq gap (bu tashvish ham bor ekanmi) yordamida ko‘rsatib berilgan. Ayol kishining fikrni bo‘rttirib ifoda qilishi esa uning hissiyotga beriluvchanligi, o‘zining ruhiy-hissiy holatini ochiq-oydin namoyon qilishga moyilligi, tez hissiy reaksiya bildirishi natijasida sodir bo‘ladigan jarayon sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2017. – 178 б.
2. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент, 2007. –187 б.
3. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 148 б.
4. Миртожиев М. Товушлардаги маънолар. – Тошкет, 1982. – 177 б.
5. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – 288 б.
6. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Монография. – Фарғона, 2021. – 224 б.

[16] Ko‘chimova P. Erkak va ayollar nutqida murojaat so‘zlar semantikasi // International scientific-practical conference on the topic of “Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages”. Volume 2 | Special issue 20. – P.684.

© 2026 Arabian International Conference on Science,Technology and Innovation. All rights reserved.

7. Нурмонов А. Парадигма ва унинг оламнинг лисоний манзараси (ОЛМ)га муносабати. Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 317 б.
8. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. I жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 416 б.